



## PEDAGOGIK INSTITUTLARDA BILIM BERISH MAZNUNI VA BILIM OLİSH MALAKASINI SHAKILLANTIRISH

*Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti  
Magistratura bo‘limi Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi  
Ilmiy rahbar: Bektursinova Lolaxon  
Magistrant: Bisenbaeva Ayjamal*

**Annotation:** Ushbu maqolada Pedagogik institutlarda bilim berish maznuni va bilim olish malakasini shakillantirish haqida fikr yuritilgan.

O‘qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig‘ini bajaradi, har tom onlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o‘qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim. Shunday ekan, o‘qituvchi mustaqillik g‘oyasiga e’tiqodli, har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkurga ega, kasbiga tegishli ma’lumoti bor, ya’ni o‘z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim hamda malakalarni egallagan bo‘lishi hamda turli pedagogik vazifalarni tezda yechishi, vaziyatlarni sezishi, o‘rganishi va baholay olishi kerak.

Oliy o‘quv yurtida ta’limni takomillashtirish maqsadida pedagogik muloqotning yangi shakllari, axborotlarning tarkibiy qismlarini qayta ishlab chiqish, o‘quv faoliyatini boshqarishning yangi shakllari talab qilinadi. Texnologik taraqqiyot, bugungi kunda ijtimoiy jarayonlarni kuzatib borishga qodir eng muhim komponentlardan biridir.

Pedagogik ta’lim texnologiyasini yaxshilash jamiyat madaniy saviyasini va uning iqtisodiy qudratini shakllantirish shartidir.

O‘qitish texnologiyasi ta’limning faoliyatini ta’minlaydi, bilimlami mehnat jarayoniga tatbiq etishni ta’minlaydi, pedagogning ongliligini qolipga tushiradi, uning jadal harakat qilishiga va hayot yo‘liga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchi barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo‘lib nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o’rnak bo‘lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olish yetuk o‘qituvchi sifatida malakali kadrlami tayyorlash ishiga o‘zinir munosib hissasini qo’shishi zarur.

Pedagogik mahoratga ega bo‘lish, o‘qituvchi uchun ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlovchi zamin bo‘libgina qolmasdan, ayni vaqtd uning jamiyatdagi obro‘-e’tiborini ham oshiradi, o‘quvchilarga nisbatan hurmat vuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo‘lida amaliy harakatlami tashkil etadi: pedagogik faoliyatda yo‘l qo‘yilgan yoki qo‘yilayotgan xatolardan xabardor bo‘lish, o‘quvchilar,



hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabat muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Kasbiy o‘qitish texnologiyasi shaxsni intizom, iroda va ixtisoslikka bo‘lgan qiziqishni yuzaga keltiradi. Mutaxassisiga bo‘lgan har tomonlama talabni qanoatlantirishga qaratilgan ta’lim texnologiyalari pedagog va talabaning hamkoriiigiga tezlikda moslangan psixologik-pedagogik shart-sharoitlami amalga oshirishga yo‘naltiradi

U pedagogik ta’sir ko‘rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi lozim. Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan avlodni tarbiyalash nozik, nihoyatda katta diqqat-e’tiborni talab qiladigan, ichki ziddiyatli jarayondir. Shunday ekan, o‘qituvchi o‘quvchi yoki talabaning shakllanish jarayonini zo‘r havas va sinchkovlik bilan kuzatishi lozim.

Darsliklar hozirgi paytda O‘qituvchi mahoratini zamon talablari darajisida rivojlantirish yuzasidan tadqiq qilingan so‘nggi ilmiy yangilikla axborot kommunikatsion texnologiyalaming O‘qituvchi kasbiy mahoritini oshirishdagi ma’lumotlar bilan boyitildi.

Mazkur ma’lumotlar oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchi va talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilaming kasbiy mahoratini oshirish, nazariy va amali bilimlarini chuqurlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.